

Ўзбекистон Республикаси
Ташқи ишлар вазири
Ўринбосари
Э.Ж.Хамраева

Хизмат хати

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги тизимини тубдан такомиллаштириш ҳамда ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий фаолиятнинг устувор йўналишларини амалга оширишда унинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2018 йил 5 апрелдаги ПФ-5400-сон Фармонига асосан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 ноябрдаги 918-сон Фармойишини ижро этиш мақсадида:

Тошкент шаҳар ҳокимининг 2019 йил 12 ноябрдаги 1610-сонли қарорига асосан Сайрам кўчаси, 22-манзилдан 0,80 гектар ер майдони ажратиб берилди.

Ажратилган ер майдонида геодезия ишларини (қозиқ қоқиш) бажарувчи «UZGASHKLITI» DUK Тошкент шаҳар филиалига мурожаат қилинди ва хизматлари учун баҳоси ҚҚС билан 2 858 467 сўмлик шартнома олинди.

«UZGASHKLITI» DUK Тошкент шаҳар филиали Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунига асосан давлат харидлари бўйича махсус ахборот порталида ягона етказиб берувчи рўйхатига киритилган ва шу асосида ушбу корхона билан туғридан-туғри шартнома тузилиши белгиланган.

Юқорида кўрсатиб ўтилган «UZGASHKLITI» DUK Тошкент шаҳар филиали билан шартнома тузишга рухсат беришингизни сўраймиз.

Ишлар бошқармаси бошлиғи

Т.Ишанджанов

И.Буранов

28/7-14315 sonli shartnoma
geodeziya ishlarini bajarish uchun

11.01 2022 yil.

Toshkent shahri

“OZGASHKLITI” TShF nomidan keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi, 05.01.2022 yildagi 4-sonli bosh ishonchnoma asosida harakat qiluvchi direktor **I.A.Tadjibayev** bir tomondan va, **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI**, nomidan, keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi, nizom asosida harakat qiluvchi **boshqarma boshlig‘i Ishandjanov T.** nomidan ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAVZUSI

- 1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning texnik topshirig‘iga asosan «**Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram ko‘chasi 22-uy manzili**» hududida geodeziya ishlarini bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi o‘z navbatida ushbu xizmatlar uchun xaq to‘lash va bajarilgan ishlarni qabul qilish majburiyatini oladi.
- 1.2. Pudratchi” ishlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlar va texnik topshiriq talablari asosida bajaradi.
- 1.3. Ishlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadigan kalendar rejada belgilangan muddatlarga (Ilova №2) muvofiq bajariladi.
- 1.4. “Buyurtmachi” Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan ob‘ektni O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi 3-qismiga muvofiq shartnomani o‘z vaqtida Moliya Vazirligi G‘aznachiligidan ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.
- 1.5. “Pudratchi” “Buyurtmachi” tegishli texnik topshiriqni topshirgandan va boshlang‘ich to‘lovini to‘lab bergandan keyin 10 kun ichida ishlarni bajarishga kirishadi.
- 1.6. “Pudratchi” shartnoma shartlarini bajarishda o‘zi bajarmaydigan va maxsus tadqiqot ishlari talab qiladigan qismi yuzasidan “Buyurtmachi”ning oldindan yozma roziligini olmasdan sudpudrat shartnomalarini tuzish huquqiga ega.

2. SHARTNOMANI TUZISH, O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 2.1. Shartnoma tomonlar imzolangan va Toshkent shahri G‘aznachiligi boshqarmasiga ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 2.2. “Buyurtmachi” besh bank ish kunida ushbu shartnomani rasmiylashtirishi lozim. Agar shartnomani rasmiylashtirishga to‘sqinlik qiladigan holatlar aniqlansa, “Buyurtmachi” yozma ravishda “Pudratchi”ni ogoxlantirishi kerak. Aks holda shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.
- 2.3. “Buyurtmachi” tomonidan shartnoma o‘z vaqtida rasmiylashtirilmaganda va shartnomaning 1.2 va 2.2. bandlari talablari buzilganda, “Pudratchi” ishlarni bajarish muddatini va ilmiy-texnik maxsulotni (keyingi o‘rinlarda “maxsulot” deb ataladi) chop etish muddatini uzaytirishga haqli.
- 2.4. Loyiha shartnomasida taraflarning kelishmovchiliklari yuzaga kelgan taqdirda 5 (besh) kun ichida chora ko‘rilib bayonnoma tuzilishi lozim.
- 2.5. “Buyurtmachi” tomonidan shartnoma yoki buyurtma bekor qilingan taqdirda yozma ravishda ma‘lum qiladi hamda haqiqatda bajarilgan ishlar haqini to‘lab berishi shart, shuningdek ularni tugatish uchun tashkiliy xarajatlar bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni qoplaydi.

3. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB-KITOB TARTIBI

- 3.1. Bajariladigan ishlar uchun to‘lov shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadigan shartnoma summasi bo‘yicha kelishuv bayonnomasiga (ilova №1) muvofiq: **2 858 466.58 (Ikki million sakkiz yuz ellik sakkiz ming to‘rt yuz oltmish olti) so‘m 58 tiyin**, shu jumladan QQS 372 843.47 so‘mni tashkil etadi va “Buyurtmachi” tomonidan “Pudratchi”ning hisob raqamiga o‘tkazib beradi.
- 3.2. Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi g‘aznachilikdan ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, “Buyurtmachi” 5 (besh) bank kunida shartnoma summasining 30% miqdorida boshlang‘ich to‘laydi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.09.2003 yildagi №395-sonli “Kapital qurilishda xo‘jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq).
- 3.3. Shartnoma summasidan ortiqcha bajariladigan va texnik topshiriqda nazarda tutilmagan ishlar bo‘yicha qo‘shimcha kelishuv tuziladi.
- 3.4. “Buyurtmachi” “Pudratchi” tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab 10 (o‘n) bank kuni mobaynida bajarilgan ishlar uchun to‘lovni amalga oshiradi

4. ISHLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI

- 4.1. “Pudratchi” og‘zaki ravishda “Buyurtmachi”ni ishlar bajarilganligi haqida xabar qiladi.
- 4.2. “Buyurtmachi” bajarilgan ishlar topshirish-qabul qilish aktini imzolab, tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi va “Pudratchi”dan tayyor mahsulotni oladi.
- 4.3. “Pudratchi” tayyor mahsulotni o‘rnatilgan tartibda berilayotgan mahsulotlar ro‘yxati – yuk xati(nakladnoy) asosida

topshiradi. Shartnomaning 3.4 bandiga muvofiq shartnoma summasining qolgan 70% to'lash uchun "Pudratchi" tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hisob varaq-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq elektron hisob-fakturani rasmiylashtiradi.

- 4.4. Agar bajarilgan ishlar natijalarida shartnoma shartlari bilan nomuvofiqlik aniqlansa "Buyurtmachi" kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida dalolatnoma tuzadi va "Pudratchi"ga taqdim etadi. "Pudratchi" dalolatnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z mablag'i hisobidan qisqa vaqt ichida bartaraf etishga va "Buyurtmachi"ga tuzatilgan maxsulotlarni taqdim etishga majburdir.
- 4.5. "Pudratchi" barcha ishlarni muddatidan oldin bajarishga haqli. Bu holatda "Buyurtmachi" ishlarni qabul qilib olishi va mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovni to'liq amalga oshirishi lozim.
- 4.6. Shartnomaning 3.2 bandi talablari buzilganda, "Pudratchi" tayyor mahsulotni "Buyurtmachi"ga bermaslikka haqli

5. FORS-MAJOR XOLATLARI.

- 5.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fukarolar tartibsizligi, epidemiya, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir).
- 5.2. Fors-major holati va oqibatlari davom etgan muddatda shartnomaning ham bajarish muddatlari mutanosib ravishda uzaytiriladi. Fors-major holatini tan olish uchun vakolatli davlat organining ma'lumotnomasi va tomonlarning bir-biriga o'z vaqtida xabar berishlari asos bo'ladi.
- 5.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini 10 (o'n) kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, shartnomani bekor qilishi mumkin.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Agar texnik, texnologik va tashkiliy sabablar bo'lmasa xizmatlar ko'rsatish muddatini buzganligi uchun "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 6.2. Ko'rsatilgan xizmatlar hakini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.
- 6.3. "Buyurtmachi" tomonidan ish natijalarini o'z vaqtida qabul qilmaslik yoki asossiz ravishda rad etganda "Pudratchi"ga tayyor maxsulot qiymatining 15% miqdorida jarima to'laydi.
- 6.4. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
- 6.5. "UZGASHKLITI" DUKdan olingan topografik materiallarning to'liq yoki qisman nusxasini ko'chirish, nusxa ko'paytirish va uchinchi shaxslarga topshirish faqatgina ishlab chiqaruvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
- 6.6. Topografik materiallarning O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga berish faqatgina qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati asosida amalga oshiriladi.
- 6.7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 654, 695 moddalariga asosan taraflar shartnomaning bajarish jarayoni va olingan natijalarga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari shart.
- 6.8. Mazkur shartnomada manfaatlari buzilgan taqdirda taraflar talabnoma taqdim etishga haqli. Talabnomani ko'rish muddati talabnomani olgan kundan boshlab 10 kundan oshmasligi lozim.
- 6.9. Nizolarni taraflarning muzokaralari yuli bilan xal etish imkoni bulmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida konunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng, nizo belgilangan tartibda sudda hal etiladi.
- 6.10. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash yuzasidan yuzaga keladigan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi yoki boshqa vakolatli sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

7. BOSHQA SHARTLAR.

- 7.1. "Buyurtmachi" loyiha oldi qidiruv ishlarini olib borish uchun yerning qismini ajratish hujjatlarini rasmiylashtiradi va qidiruv ishlari olib borish uchun hujjatlar taqdim etadi.
- 7.2. Alohida yer uchastkasida qidiruv ishlarini olib borish vaqtincha imkonsiz bo'lgan taqdirda (paxta va boshqa ekinlarni ekish, yerlarni yuvish, binolarni buzish va boshqalar) "Buyurtmachi" ushbu masalaga yechim tuzadi va "Pudratchi"ga ish boshlash to'g'risida xabar beradi. "Pudratchi" yuqoridagi sabablarga ko'ra ishni majburiy ravishda to'xtatib turishi va ish jadvali (ilova №3) bo'yicha ishni keyinga qoldirishga haqlidir.
- 7.3. "Pudratchi" ishlarni bajarishda belgilangan xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish va sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq harakat qilishi, ekologik muhitni saqlashga hissa qo'shishi shart.
- 7.4. Shartnomaning barcha bandlarini talqin qilish O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik kodeksi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 7.5. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir nusxasi "Buyurtmachi"ga, bir nusxasi "Pudratchi"ga saqlanadi. Ikki

xusxadagi shartnoma ham bir xil yuridik kuchga ega.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma tomonlar imzolagan va Toshkent shahri G'aznachiligi boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma majburiyatlari 31.12.2022 yilgacha to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

SHARTNOMAGA BIRIKTIRILGAN HUJJATLAR RO'YXATI

- Ilova №1 "Shartnoma summasi bo'yicha kelishuv bayonnomasi"
- Ilova №2 "Kalendar reja"
- Ilova №3 "Ish narxini baholash"

TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOSI:

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»

«O'ZGASHKLITI» TShF

Manzil: 100011, Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi 2-a uy,
Tel.(8371)-241-32-62, 241-29-52 Faks 71 241-39-68
x/r 20210000704489790001
TIF «Milliy bank» Olmazor filiali
MFO: 00876 STIR: 206328965
IFUT: 711110

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

Manzil: Toshkent shahar, A. Temur ko'chasi 3-uy
Tel. 71/239-17-45 71/232-09-80

Министерство иностранных дел
Республики Узбекистан
Адрес: г. Ташкент, пр-т. Амир Темура, 3
Тел.: 233-50-09, Факс: 232-04-88
П/сч.: 40011086 0262 7370 1210 1019 001
ИНН: 200981397 ОКОНХ: 97300
Операционное управление Казначейства
Министерства финансов РУз
ИНН: 2011229, МФО: 00014
РКЦ ГУ ЦБ г. Ташкент
П/сч: 2340 2000 3001 0000 1010

Direktor



Tadjibayev I.A.

M.O.

I. M. Kaurayev

(Lavozimi, F. I. O., imzo)



[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

Shartnoma summasi bo'yicha kelishuv BAYONNOMASI

Biz, quyida imzo chekuvchilar, «Pudratchi» «O'ZGASHKLITI» TShF nomidan, direktor I. Tadjibayev va «Buyurtmachi» - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI nomidan boshqarma boshlig'i Ishandjanov T. shartnomaning bahosi taraffar o'rtasida kelishib, quyidagi narx belgilandi: 2 858 466.58 (Ikki million sakkiz yuz ellik sakkiz ming to'rt yuz oltmish olti) so'm 58 tiyin,, shu jumladan QQS 372 843.47.

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi 22-uy manzili obekti bo'yicha geodeziya ishlarini bajarish Bayonnoma «Buyurtmachi» va «Pudratchi» o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob uchun asos bo'lib xizmat qiladi

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»

Direktor



Tadjibayev I.A.

M.O'

M.O'

(Lavozimi, F. I. O., imzo)

KALENDAR REJA

- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI ning buyurtmasiga binoan

| Shartnoma bo'yicha ish turlari | Bajarish muddati | Hisob-kitob qiymati (so'm) |
|--------------------------------|---|----------------------------|
| geodeziya | Boshlang'ich to'lovdan so'ng 12 oy ichida | 2 858 466.58 |
| JAMI: | | 2 858 466.58 |

«PUDRATCHI»

«BUYURTMACHI»

Direktor



Tadjibayev I.A.

M.O'



(Lavozimi, F. I. O., imzo)

СМЕТА
на топогеодезические работы

Наименование объекта: M.Ulug'bek tumani Sayram ko'chasi 22 uy hududi (Qurilish uchun chegara qoziqlari=360m);
Заказчик: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI XO'JALIK TA'MINOTI BOSHQARMASI
Исполнитель: ТГФ "O'ZGASHKLITI"

Настоящий сметный расчет произведен в соответствии положений:

- (1) Закон Республики Узбекистан "О договорно-правовой базе деятельности хозяйствующих субъектов; "
- (2) "Положение о порядке определения стоимости проектно-изыскательных работ" Т.2008г. Госархитектстрой РУз;
- (3) "Порядок определения стоимости топографо-геодезических и инженерно-геологических работ в договорных текущих ценах" Госархитектстрой РУз приказ №60 от 28.10.2005г, дополнение к приказу №6 от 27.01.2014г.;
- (4) "Методическое пособие по определению стоимости инженерных изысканий для строительства" Госархитектстрой РУз приказ №13 от
- (5) "Нормы времени и расценки на работы по геоинформационному обеспечению градостроительной деятельности". Том 1 "Инженерно-геодезические изыскания" Госархитектстрой РУз приказ №55 от 28.04.2009г.

| № | Наименование работ | Номер нормы | Норма времени Нвр(час) | Тарифная ставка исполнителей Тi(сум) | Повышающие коэф. Кi | Коэф. перехода Кп | Единица измерения | Объем работ | Стоимость, сум |
|---------------------------------|--|-------------|------------------------|--------------------------------------|---------------------|-------------------|----------------------|-------------|-------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| Полевые работы | | | | | | | | | |
| 1 | Отыскивание пунктов полигонометрии: по линейным привязкам | 211III | 0,421 | 15 152,05 | | 15,95 | пункт | 2 | 203490,52 |
| 2 | Проложение дальномерно-теодолитных ходов точности 1:2000 (комплекс работ) при средней длине хода, м: 151-200 | 250 II | 1,94 | 21 139,87 | 0,8 | 15,95 | км | 0,2 | 104660,96 |
| 3 | Рекогносцировка для перенесения в натуру проекта планировки и застройки | 1145 II | 1,04 | 17 842,65 | | 15,95 | 1 км проектной линии | 0,36 | 106550,60 |
| 4 | Перенесение в натуру осей и габаритов зданий при количестве осей на 1 км до 25 | 1158 III | 17 | 16 941,81 | | 15,95 | 1 км | 0,36 | 1653757,84 |
| ИТОГО полевых работ: | | | | | | | | | 2068459,91 |
| Камеральные работы | | | | | | | | | |
| 5 | Вычисление координат пунктов теодолитных ходов | 273 | 0,174 | 11 263,58 | | 15,95 | пункт | 2 | 62519,63 |
| 6 | Составление исполнительного чертежа перенесенного проекта планировки | 1226 | 0,136 | 5 374,76 | | 15,95 | точка | 18 | 209860,73 |
| 7 | Нанесение красных линий по координатам на план 1:500 | 1229 | 0,127 | 3 970,82 | | 15,95 | точка | 18 | 144782,85 |
| ИТОГО камеральных работ: | | | | | | | | | 417163,20 |
| ВСЕГО РАБОТ: | | | | | | | | | 2485623,11 |

НДС 15%

Всего с учетом НДС

372843,47

2858466,58

Beero: Ikki million sakkiz yuz ellik sakkiz ming to'rt yuz oltmush olti so'm ellik sakkiz tiyig QQS bilan. (Shartnomaga asosan kelishilgan narx.)

Direktor o'rin bosari

Bo'lim boshlig'i

Smeta tuzdi

Kadirov Sh.Y.

Ismoilov U.

Asimova D.I.